

## XORIJIY MAMLAKATLARDA GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISH XUSUSIYATLARI

**Abdullayev Madiyar Daniyar o‘g‘li**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ayrim xorijiy mamlakatlarning maktab ta'limida geografiya fanini o'qitishning xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** geografiya ta'limi, o'quv dasturi, tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya, inson geografiyasi, ekologiya, geografik fikrlash, geografik ko'nikma.

Geografiya fani o'quv dasturlari ko'pchilik davlatlarda deyarli bir xil bo'lib, unda dunyoning, joylashgan mintaqasining hamda mamlakatning tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasini o'rganishga qaratilgan. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida o'quv dasturlari, geografiya darsliklari mamlakat iqtisodiyotining ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda tuzilmoqda. Ushbu yondashuvlar ta'lim mazmuni va o'quv metodologiyalariga e'tibor qaratilgan mavzularni aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Geografiya fanini o'qitish mamlakat va mintaqqa ta'lim tizimlariga bog'liq ravishda sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Dunyo mamlakatlardagi maktablarda geografiya fanini o'qitishda mintaqaviy yondashuvlar ko'pincha har bir mintaqaning o'ziga xos tabiiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlariga bog'liq holda shakllanadi. Mintaqaviy yondashuvlar tufayli geografiya fanining mazmuni va metodologiyasi dunyo bo'ylab farqlanadi, lekin asosiy maqsad - o'quvchilarga o'z hududlari va global miqyosdagi geografik masalalar haqida chuqur bilim berishdan iboratdir. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida geografiya fan sifatida o'qitiladi. Quyida esa ayrim mamlakatlar misolida geografiyaning o'qitilishini ko'rib chiqamiz.

Yaponiya 1944-yilda ishlab chiqilgan milliy o'quv dasturida geografiya ijtimoiy fanlarning bir qismi sifatida o'qitiladi. Dasturda jahon tarixi fani muhim o'rin tutadi, bu esa ijtimoiy fanlarda geografiyaning rolini pasayishiga olib keldi. Yaponiyadaning ta'lim dasturlarida geografiya darslari cheklangan va tanlov fani hisoblanadi. Shu sababli, Yaponiyadagi geografiya o'qituvchilari geografiya fanining ta'lim dasturidagi o'rnini mustahkamlash, GIS dan o'quv quroli sifatida foydalanish va geografiyaning ahamiyatli fan ekanligini tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Yaponiya o'quv dasturida geografiya fani



nafaqat mamlakat geografiyasi bilan tanishtiradi, balki dunyo geografiyasi, global muammolar, iqlim o'zgarishining oqibatlari va tabiiy resurslar kabi mavzularga ham e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, Yaponiya ta'lim tizimida o'quvchilarni global fuqarolik uchun tayyorlash, ularga dunyo mamlakatlari va madaniyatlari haqida kengroq tushuncha berish maqsad qilinadi.

Xitoy maktablarida geografiyaning mustaqil va majburiy kurs sifatida o'qitiladi. Majburiy darajadagi geografiya kursi ikki qismdan iborat: tabiiy geografiya va inson geografiyasi. Tabiiy geografiyada geografik ma'lumotlar va atamalar, atmosfera, litosfera, biosfera va tabiiy ofatlar kabi mavzular o'qitilsa, inson geografiyasida inson va tabiatning o'zaro ta'siri, inson faoliyati, atrof-muhit, aholi yashash punktlari hamda shaharlashuv mavzularga ustuvor ahamiyat beriladi. O'rta maktablar geografiya kurslaridagi o'quv dasturida tizimli geografiya, mintaqaviy geografiya fanlari va amaliy geografik texnologiyalaridan foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Geografiya fanini o'rgatish o'quvchilarga global tushunchalarni yetkazish, dunyoqarashini kengaytirish va zamonaviy global muammolarni anglashlariga yordam beradigan muhim jihat hisoblanadi. Bu yondashuv, ayniqsa, Xitoyning global iqtisodiyotdagi o'rnini tushunish uchun ham zarur hisoblanadi.

Hindiston maktablarida geografiya ta'limi o'quv dasturining muhim qismi bo'lib, u o'quvchilarga mamlakatning tabiiy va ijtimoiy geografiyasi bilan bir qatorda global geografiya haqida keng bilim beradi. Geografiya boshlang'ich sinflardan boshlab o'qitiladi va o'rta maktab darajasida ham majburiy fan sifatida davom etadi. Boshlang'ich ta'limda, ya'ni, 1-5 sinflarda geografiya tabiiy fanlar yoki ijtimoiy fanlar bilan birlashtirilgan holda o'qitiladi. Bu bosqichda o'quvchilarga oddiy geografik tushunchalar, tabiat, ob-havo, yerning shakllanishi, va Hindistonning asosiy geografik xususiyatlari o'rgatiladi. O'rta maktabdagi 6-10 sinflarda geografiya alohida fan sifatida kiritiladi. Ushbu bosqichda o'quvchilarga Hindistonning tabiiy geografiyasi (tog'lar, daryolar, iqlim va resurslar), dunyo geografiyasi (materiklar, okeanlar, global iqlim o'zgarishlari va tabiiy ofatlar), aholi va urbanizatsiya (aholi taqsimoti, joylashuvi, shahar va qishloq geografiyasi, demografiya masalalari) mavzulari o'rgatiladi. O'quv dasturi Hindistonning tabiiy resurslari, sanoati va iqtisodiy geografiyasiga katta e'tibor qaratadi. Yuqori o'rta maktab hisoblangan 11-12 sinflarda geografiya yanada murakkabroq bo'ladi va tabiiy hamda ijtimoiy geografiya bo'yicha ixtisoslashgan kurslar taklif etiladi.



Turkiya maktablarida geografiya fani o'rta ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Maktab ta'limida geografiya 9-sinfdan boshlab o'qitiladi va geografiya majburiy fan sifatida kiritilgan bo'lib, o'quvchilarga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya bo'yicha bilimlar beriladi. O'quvchilar 9-10 sinflarda umumiy geografik bilimlar, jumladan, yerning geologik tuzilishi, tabiiy hodisalar, geografik jarayonlar va iqlimni o'rganadilar. Ushbu sinflarda fan ko'proq tabiiy geografiyaga yo'naltiriladi. 11-12 sinflarda o'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyani o'rganadi. Bunda tabiiy tesurlarning iqtisodiy ahamiyati, aholi, shaharsozlik va ekologik masalalar bo'yicha kengroq bilim beriladi. Shuningdek, Turkiya geografiyasi alohida mavzu sifatida chuqurroq o'rganiladi.

Avstraliya maktablarida geografiya ta'limi o'quv dasturining muhim qismi hisoblanadi. Geografiya ta'limi o'quvchilarga atrof-muhit, jamiyat, iqtisodiy faoliyatlar va global jarayonlarni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Geografiya 7-10 sinflarda alohida fan sifatida o'qitiladi. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan, yuqori sinflarda esa tanlov fan hisoblanadi.

Nigeriya maktablarida geografiya ta'limi o'rta ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi va o'quvchilarga mamlakatning tabiiy va iqtisodiy jihatlarini chuqur tushunish uchun geografik bilimlar beradi. Geografiya Nigeriyada tabiiy resurslar, iqtisodiy rivojlanish va ekologik masalalarga aloqador muhim fan sifatida ko'riladi. Geografiya boshlang'ich maktabning ijtimoiy fanlar o'quv dasturiga kiritilgan bo'lib, o'quvchilar oddiy tushunchalar bilan tanishadilar. O'rta maktabda geografiya alohida fan sifatida o'qitiladi va kengroq mavzularni qamrab oladi. Yuqori o'rta maktabda geografiya chuqurroq o'qitiladi va talabalarga tabiiy va ijtimoiy geografiyaning murakkab jihatlarini o'rgatiladi. Geografiya Nigeriyada ekologik ongni shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish va global o'zgarishlarni tushunish uchun muhim fan bo'lib, mamlakat rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatadi.

Germaniya maktablarida geografiya ta'limi o'quv dasturida muhim fanlardan hisoblanadi. Geografiya talimining asosiy maqsadi talabalarda ekologik ong, iqtisodiy rivojlanish, resurslar boshqaruvi va global masalalar bo'yicha tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Boshlang'ich maktab darajasida geografiya ko'pincha ijtimoiy fanlar doirasida o'qitiladi. O'rta maktabda geografiya alohida fan sifatida o'qitiladi. Yuqori sinflarda geografiya yanada chuqurroq o'rganiladi va ko'proq ilmiy-tahliliy



yondashuvni talab qiladi. Germaniya maktablarida geografiya ta'limida xaritalar, diagrammalar, raqamli texnologiyalar va GIS tizimlari keng qo'llaniladi. Darslar amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning tahliliy va ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Finyandiya maktablarida geografiya ta'limi o'rganiladi. O'quvchilarga tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy geografiya bo'yicha bilimlar beriladi. Ushbu ta'lim tizimi ekologik barqarorlik, iqlim o'zgarishi va global masalalar bo'yicha chuqur tahliliy fikrlashni rivojlantirishga urg'u beradi. Geografiya o'rta maktabdagi 7-9 sinflarda alohida fan sifatida o'qitiladi. Kelajakda geografiya, biologiya, ijtimoiy fanlar, iqtisodiyot kabi fanlar bilan integratsiyalashgan yondashuvlar asosida kutilmoqda.

AQSh maktablarida geografiya ta'limi turli darajalarda alohida fan sifatida yoki tanlov fan sifatida o'qitiladi. Bu o'quv dasturiga va maktabning ta'lim siyosatiga qarab farq qiladi. Geografiya ta'limi AQShda o'quv dasturlarida muhim o'rin tutsa-da, bu fanning o'rni maktab va shtat darajasida farq qilishi mumkin. Katta maktab tizimlarida geografiya alohida fan sifatida o'rganilishi ko'proq uchraydi, lekin ba'zi maktablarda tanlov fan sifatida qo'shimcha imkoniyatlar ham mavjud bo'ladi.

Braziliya maktablarida geografiya fani orqali o'quvchilar Braziliyaning tabiiy va ijtimoiy muhitni, global masalalarni, shuningdek, mintaqaviy hamda milliy rivojlanish jarayonlarini tushunishga o'rganadilar. Braziliyada boshlang'ich maktablarida (1-5 sinflarda) geografiya ijtimoiy fanlar tarkibida, o'rta maktabda (6-9 sinflar) ham tarix bilan birgalikda, yuqori maktabda (10-12) esa alohida fan sifatida o'qitiladi. Yuqori maktabda iqtisodiy geografiya o'qitiladi. Braziliya maktablarida geografiya ta'limi mamlakatning geografik xususiyatlari, ijtimoiy murakkabligini tushunish, global jarayonlar va ekologik muammolar haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, geografiya fanini o'qitish bo'yicha dunyodagi ko'pgina mamlakatlar maktab ta'limida o'ziga xos umumiyliklar mavjud. Geografiya fanini maktablarda o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda geografik fikrlash va ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bu maqsadga erishishda xaritalarni o'qish, hududlarni tahlil qilish, tabiiy va mehnat resurslarining taqsimotini o'rganish kabi jihatlar katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu bilim va ko'nikmalar yosh avlodning global dunyoni yaxshiroq tushunishiga, zamonaviy muammolarga yechim topishida yordam beradi hamda ularning atrof-muhit bilan ongli munosabatini rivojlantiradi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abduvoxidov S., Ganiyev Z. Geografiya o'qitish metodikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. -328 b.
2. Matthews J, Herbert D. Geography A Very Short Introduction. Oxford University Press. 2008. -208 pages.
3. Nairn, K. What has the geography of sleeping arrangements got to do with the geography of our teaching spaces? Gender, Place and Culture, 10(1), 67-81.
4. Qurbonniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022. –230 b.
5. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

